

**YOSH PEDAGOGLARNI SHAXSLARARO MULOQOT
FUNKSIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

Nusratova Munojat Urmanovna

*Andijon viloyati Andijon tumani maktabgacha va maktab ta'limi
bo 'limiga qarashli 8- umumiyo rta ta'lim maktab psixolog*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarda muloqotchanlikni shakllantirish, o'qituvchiva o'quvchi munosabatiga qo'yiladigan talablar va zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi kerakligi yoritib berilgan. Shaxslararo muloqot funksiyalaridan foydalanish haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: yosh o'qituvchi, muloqot, pedagogik mahorat, pedagogik muloqot, muloqot funksiyalari..

Avvalo, shaxs tushunchasining asl negiziga e'tibor beradigan bo'lsak, shaxs bu idrok qila oluvchi, esda saqlay oluvchi va fikr yuritish qobiliyatiga ega mavjudotdir. Shaxs insonga ta'lluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakati bilan boshqalardan ajralib turadigan, mavjud xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi. Shaxs ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning maxsuli hamdir. Insonning falsafiy tafakkuri rivojida shaxs va jamiyat munosabati muhim o'rinda turadi. Ko'plab konseptsiyalar va falsafiy qarashlar mavjud. Shaxs va jamiyat munosabatiga qarashda dastlab mifologik, diniy qadriyatlar ustuvor bo'lgan. Bu kabi ijtimoiy rivojlanish, avvalo dunyo to'g'risidagi tasavvurlari, ongi, bilimi, tashqi olamga bo'lgan ta'sirlari va ko'nikmalarining ifodasidir. Ya'ni bu "tabiat-inson, jamiyat" munosabatini ko'rsatadi. Asta-sekin "inson-jamiyat" munosabatiga bo'lgan qarashlar shakllanib bordi. Diniy, falsafiy va mifologik qarashlar o'z aksini topa boshladidi. Ushbu ikki atamaga falsafiy tarafdan yondashadigan bo'lsak, "Inson", "Jamiyat" munosabati insonning jamiyatdagi o'rni, inson mohiyat va unga xos xususiyatlar to'g'risida falsafiy yondashiladi. Tarixda esa turli diniy-falsafiy tizimlar shaxs masalasiga o'zgacha yondashilgan. Antik davr falsafasini ko'radigan bo'lsak, shaxsga nisbatan asosan ijtimoiy munosabatlar nuqtayi nazardan qaralganda, xristianlik ta'limotida shaxs maxsus mohiyat, "Individual substansiya", aqliy xususiyat, nomoddiy ruhning sinonimi deb tushunilgan. Yangi davr falsafasida fransuz faylasufi R.Dekart shaxs to'g'risida dualistik g'oya shakllanishiga yo'l ochib berdi. Bunda avvalo, o'z-o'zini anglash – "Men" tushunchasi bilan birlashib ketdi. Juda ko'plab ta'rif va tushunchalar orasida Amerikalik psixolog G. Ollportning ta'rifi e'tiborga loyiqidir: "Shaxs bu hayot jarayonida shakllanuvchi individual o'ziga xos psixofiziologik tizimlar shaxs xususiyatlari yig'indisi bo'lib, u asosida ushbu insonga xos tafakkur va xulq - atvor yuzaga keladi". Rus psixologi S.L.Rubinshteyn:

“Odam o‘zidagi takrorlanmas xususiyatlariga ko‘ra individualdir. Uni o‘z atrofidagilariga, borliqqa bo‘lgan ongli munosabati, biror faoliyat bilan shug‘ullanishi uning shaxs ekanligidan dalolat beradi” deb ta’kidlab o‘tadi. XX asr psixologgi va filosofi Erik Fromm shaxs tushunchasiga shunday ta’rif beradi, “Shaxsda shunday yaxlit tug‘ma va orttirilgan psixik xususiyatlar borki, u individni xarakterlab beradi va qaytarilmasligini ifodalaydi. Shaxs xususiyatlari - temperament, qobiliyat, hissiy-irodaviy sifatlar va xarakterni o‘z ichiga oladi. Ammo shaxsning mohiyati-bu uning yo‘nalganligi, uning motivatsiyalari, ijtimoiy munosabatlari va ustakovkalari (ko‘rsatmalari), shu bilan birga albatta o‘z-o‘ziga munosabatdir”. Bizga ma’lumki, “shaxs” tushunchasi faqat psixologiya fani orqali emas balki, boshqa ko‘plab falsafa, sotsiologiya, pedagogika kabi fanlar tomonidan ham tahlil qilib o‘rganilgan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo madaniy munosabatlarga tayyorlash ularni kasbiy rivojlanadirish nuqtai nazardan yondashganda amaliy xarakterga ega bo‘lgan o‘ta muhim pedagogik masalalar biri hisoblanadi. Ta’lim jarayoni sub’ektlariga shaxslararo munosabatlarning ta’sirini aniqlash mexanizmlarini aniqlash zaruriyati kuchaymoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonining muvaffaqiyatli kechishini ta’minalashda shaxslararo munosabatlar dinamikasini aniqlash muhim hisoblanadi. Ushbu muammoning turli yo‘nalishlarini tadqiq etishga bag‘ishlangan ishlarning tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, umumiyligi muammoning bugungi kunga qadar o‘rganilmagan tarkibiy qismini ajratish alohida ahamiyatga ega. Bo‘lajak pedagoglar orasidagi shaxslararo munosabatlarni o‘rgangan mutaxassislar R.Safarova, N.Dilova, Sh.Doniyorov, G.M.Andreyev, N.N.Obozova, L.YA.Gozmanlar uning turli qirralariga murojaat qilganlar. Shaxslararo munosabatlarning funksiyalarini o‘rgangan mutaxassis N.V.Kazarinova quyidagilarni ajratishga muvaffaq bo‘lgan: axborotli, emotiv, kontakt, qo‘zg‘atuvchi, muvofiqlashtiruvchi, tushunish funksiyasiga ko‘ra, munosabat o‘rgatish va yordam ko‘rsatish funksiyasiga ko‘ra kabilar.

Shaxsning shakllanishi atrofdagilar yordamida amalga oshadi. Ta’lim jarayonida ko‘rsatiladigan o‘zaro ta’sir va yordam talabalarning kasbiy rivojlanishlari va tarbiyasiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Kasbiy ta’lim jarayonida shaxslararo munosabatlarning roli va o‘rnini N.E.Kasatkina, A.R.Luriya, E.YU. Klepsova kabi mutaxasssilarning ishlarida ochib berilgan. Shaxslararo munosabatlar doirasida psixik jarayonlar metajarayon va metatizimlar bilan bog‘liq jihatlari ham tadqiq etilgan. Ushbu yo‘nalishda A.V. Karpov, I.M. Skityaeva, S.M. Xalinla izlanishlarni olib borganlar. O‘quv topshiriqlarning ko‘lamining kengayishi barobarida shaxslararo munosabatlarning dolzarblashuvi kuzatiladi. Raqamlı transformatsiyalar sharoitida shaxslararo munosabatlarning ko‘lami torayib bormoqda. Bunday vaziyatlarda shaxslararo munosabatlarning xarakteri va ushbu yo‘nalishda vujudga kelgan tendensiyalarni o‘rganishga nisbatan pedagogik ehtiyoj vujudga kelmoqda. Shu bilan bir qatorda ta’lim oluvchilarning shaxsida ham bir qator o‘zgarishlar kuzatilmoqda.

Kompentsiyaviy yondashuv doirasida talabalarning o‘z faoliyatlarini boshqarishlari va o‘z harakatlarni muvofiqlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj kuzatilmoqda. Yoshlarni shaxslararo munosabatlarning metodologik asosi sifatida mutafakkir ajdodlarimizning pedagogik ta’limotlari hamda pedagogika nazariyasida mavjud bo‘lgan sotsiodidaktik yondashuvlarni ko‘rsatish lozim. Biz quyida shaxslararo munosabatlarni rivojlanishiga asos bo‘ladigan holatlarni tahlil qilishga harakat qildik. Shaxslararo munosabatlar o‘zini qonun qoidalar tizimi, stereotiplar, natijalariga ega. Bu qoidalar va stereotiplar shaxslarning o‘zaro munosabat jarayonida biri birlariga ta’sir ko‘rsatishlarini ta’minlaydi. Shaxslararo munosabatlar jarayonida talabalar muayyan ijtimoiy rollarni bajarish ko‘nikmasini egallaydilar. Jumladan ular o‘qituvchi va o‘quvchi mavqeini aniqlashga harakat qiladilar. Shaxslararo munosabatlar jarayonida talabalar o‘zlarining shaxsiyatlarini shakllantirishga muvaffaq bo‘ladilar. Shaxslararo munosabatlarning rivojlanish jarayonida sub’ektiv xarakterdagи kechinmalar, o‘zaro munosabatlar tarkib topadi. Shaxslararo muloqot jarayonida talabalarning o‘zaro tengligi ta’milanadi va qo‘llab-quvvatlanadi. Shunda ular o‘zaro munosabatga kirishish uchun qulay sharoitlarni izlaydilar. Bunday sharoitlar ularning shaxsiy o‘ziga xosliklarini, o‘zlarini bilish va anglashlarini, namoyon etishlarini ta’minalash imkonini beradi. Shaxsga yo‘naltirilgan muloqot jarayonida talabalar o‘z suhbatdoshlarining betakrorligi, o‘ziga xosligini anglashga muvaffaq bo‘ladilar. Shuningdek, uning hissiy holati, shaxsiy tavsifnomasi hamda ularning o‘z o‘zini baholash darajasini o‘rganishga muvaffaq bo‘ladilar. Shaxslararo munosabatlarning asosini talabalarning o‘zaro hamkorligi tashkil etadi. Bunday hamkorlik muloqot jarayonida vujudga kelgan bo‘lib, bunday muloqot jarayonining ishtirokchilari bir-birlariga o‘zaro ta’sir ko‘rsatadilar: nuqtai nazarlari, ustakovkalari, stereotiplarini o‘zgartiradilar. Shaxslararo munosabatlarning asosini talabalarning emotsiyonalliklari, motivatsion jarayonlar, qadriyatlar va shaxsiy fikrlari tashkil etadi. Shaxslararo muloqot tushunchasi to‘liq ma’noda shaxslararo aloqa, shaxslararo kommunikatsiya, shaxslararo bирgalikdagi faoliyat, o‘zaro harakatlar va muloqotni o‘z ichiga oladi. Shaxslararo kommunikatsiya o‘zida fikr almashinishning turli usullari shaxslararo axborot almashinish hamda qayta ishlash usullarini mujassamlashtiradi. Shaxslararo bирgalikdagi munosabatlar esa muloqot jarayonidagi sheriklik, o‘zaro munosabatlardan iborat. Ular bирgalikdagi hamda yakka tarzdagi faoliyatning barcha turlarini tadqiq etadilar. Mazkur harakatlar bирgalikda pozitiv o‘zgarishlarni amalga oshirish, faoliyat usullarini egallah, o‘zaro munosabatlar va ustakovkalarni o‘zgartirishga asos bo‘ladi. Shaxslararo munosabatlar shuni angalatadiki, talabalar orasidagi aloqalar hissiy emotsiyonal yo‘nalishga ega bo‘lib, bunday yo‘nalishsiz shaxslararo muloqotni amalga oshirish imkonsiz.

Shaxslararo munosabatlarning funksiyalari:

-aloqalar o‘rnatish, muloqotdoshlar qabul qilish va axborotlarni uzatishga tayyor, shuningdek muloqotni qo‘llab quvvatlashga ham tayyor, o‘zaro axborot almashinish:

-muloqotdoshlar o‘zaro axborot, fikr, echimlar, g‘oyalarni almashinishga moyil bo‘ladilar.

-Muloqotga turki berish: bunda talabalar muloqotga kirishi uchun yo‘naltiruvchi usullarni qo‘llaydilar, o‘z suhbatdoshlarini muloqotga undaydilar, muloqotdoshlarini muayyan xarakatlarini bajarishga yo‘naltiradilar.

Muloqotni funksiyasi: muloqotdoshlar bir birlarini bir xilda tushunishga muvaffaq bo‘ladilar, suhbatdoshlari taqdim etgan axborotlarning mohiyatini anglab etadilar, qonun qoidalar, ustanovkalar rejalar hamda holatlarni tushunib etadilar.

Muloqot jarayonidagi his-tuyg‘ularning ifolash funksiyasi: muloqotdoshlar bir birlarini faoli akka undaydilar, muayyan hissiy kechinmalarini boshdan kechiradilar, o‘zlarining shaxsiy holatlariga qarab yo‘nalish oladilar hamda suhbutdoshlarini o‘zgartirishga muvaffaq bo‘ladilar.

Munosabat o‘rnatish funksiyasi: natijada ular shaxslararo munosabatlar jarayonida o‘z mavqelarini anglab etadilar. **Kommunikativ muloqot jarayonida quyidagilar alohida farqlanadi:** verbal hamda noverbal kommunikatsiya.

Verbal kommunikatsiya nutq vositasda axborot almashinishga asoslanadi. Bunda ular nutq va ovoz imkoniyatlaridan foydalanadilar. Nutq axborot almashinishning eng qulay vositasi hisoblanadi. Nutq vositasida taqdim etilayotgan ma’lumotning mohiyati oydinlashadi.

Noverbal kommunikatsiya doirasida esa axborot almashinishning boshqa bir qator usullardan foydalaniladi. Ular belgililar tizimi va nutqning yordamchi vositalar, pedagogik jarayonlarda qo‘llaniladigan mimikalar, ko‘z orqali aloqa o‘rnatish, shu bilan bir qatorda shaxslararo muloqotga zamon vam makon munosabatlari ham sezilarli ta’sir ko‘rstadi. Professor-o‘qituvchilar bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlashda muloqotning barcha vositalaridan birdek foydalanishlari lozim.

Muloqot jarayoni o‘ziga xos ravishda murakkab bo‘lib, bunda uch xil bosqich mavjud. T. Shibutani “Ijtimoiy psixologiya» kitobida (darsligida) “Agar odam ozgina bo‘lsa ham o‘zini anglasa, demak, o‘z-o‘ziga ko‘rsatmalar bera oladi”, deb to‘g‘ri yozgan edi. Odamning o‘z-o‘zi bilan muloqoti aslida uning boshqalar bilan muloqotining xarakterini va hajmini belgilaydi. Agar odam o‘z-o‘zi bilan muloqot qilishni odat qilib olib, doimo jamiyatdan o‘zini chetga tortib, tortinib yursa, demak, u boshqalar bilan, suxbatlashishda jiddiy qiyinchilikni boshidan kechiradi deyish mumkin. Demak, boshqalar bilan muloqot - muloqotning ikkinchi bosqichidir. Uchinchi bosqich avlodlar o‘rtasidagi muloqot. Bu muloqot tufayli har bir jamiyatning o‘z madaniyati, madaniy boyliklari, qadriyatlari mavjud bo‘ladiki, buning ahamiyatini tushungan insoniyatning eng ilg‘or vakillari uni doimo keyingi avlodlar uchun saqlab keladilar hamda ta’lim-tarbiya va kundalik muloqot jarayonida uni avloddan-avlodga uzatadilar. Pedagogik muloqot (pedagogik jarayonda ishtirok etuvchilar o‘rtasida

amalga oshiriladigan murakkab o‘zaro ta’sir jarayoni). Har bir muloqot turining o‘z qonun-qoidalari, ta’sir usullari va yo‘l-yo‘riqlari borki, ularni bilish har bir kishining, ayniqsa, odamlar bilan doimo muloqotda bo‘ladigan pedagoglarning burchidir desak adashmagan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Hasanov, D.Abdumadjidova, N. Atayeva. Psixologiya (psixologiya nazariyasi va amaliyoti asoslari) Ma’ruza matni-Toshkent 2016, 5-bet. 3. S.L.
2. Rubinshteyn. Umumiyl psixologiya asoslari 2006.
3. Dilova N.G. (2018). Buyuk ajdodlarimizning ta’limotlarida mujassamlashgan o‘qituvchi bilan o‘quvchilar xamkorligining pedagogik xususiyatlari. Zamonaiviy ta’lim. №3, 63-68 b
4. Safarova R.G. Didactic conditions of forming creative thinking skills in student. International scientific and practical conference “trends of modern science and practice”. Ankara, Turkey 2023.
<https://zenodo.org/badge/DOI/10.5281/zenodo.7786879.svg>